

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 166 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich6 Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR

Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: akmal_a85@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida aholi ish bilan bandligi samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlarning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Xizmatlar sektorida bandlik darajasi, mehnat unumdorligi, daromadlar dinamikasi, yangi ish o'rinlari yaratish sur'atlari, bandlik tarkibi hamda raqamli xizmatlar ulushi kabi indikatorlarning mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va uning bandlik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sektorida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, bandlik, samaradorlik, mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, xizmatlar bozori, tarkibiy o'zgarishlar, raqamlashtirish, iqtisodiy tahlil.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for evaluating indicators of employment efficiency in the service sector. The study explores the content of key indicators such as employment rate, labor productivity, income dynamics, the pace of job creation, employment structure, and the share of digital services. In addition, the role of the service sector in economic development and the factors affecting employment efficiency are analyzed. The research findings contribute to the development of scientifically grounded conclusions and practical recommendations aimed at improving the efficiency of labor resource utilization in the service sector.

Keywords: service sector, employment, efficiency, labor resources, labor productivity, service market, structural changes, digitalization, economic analysis.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы оценки показателей эффективности занятости населения в сфере услуг. Рассматривается содержание таких индикаторов, как уровень занятости, производительность труда, динамика доходов, темпы создания новых рабочих мест, структура занятости и доля цифровых услуг в секторе услуг. Проанализирована роль сферы услуг в экономическом развитии и факторы, влияющие на эффективность занятости. Результаты исследования направлены на формирование научно обоснованных выводов и практических рекомендаций по повышению эффективности использования трудовых ресурсов в сфере услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, занятость, эффективность, трудовые ресурсы, производительность труда, рынок услуг, структурные изменения, цифровизация, экономический анализ.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va



urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida aholi turmush tarzida xizmatlarga bo'lgan talab izchil ortib bormoqda. Xizmatlar sektorining tez sur'atlarda kengayishi, o'z navbatida, mehnat bozorida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, bandlik darajasining oshishi hamda aholi daromadlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi samaradorligi iqtisodiyotda mehnat resurslaridan qay darajada oqilona va natijali foydalanilayotganini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bandlik samaradorligini baholash jarayoni mehnat unumdorligi, xizmatlar hajmi, xizmat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, raqamli xizmatlar ulushi, ijtimoiy-demografik guruhlar bandligi hamda hududlar kesimidagi farqlanishlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi yalpi ichki mahsulot tarkibida 35–40 foiz atrofida ulushni egallab, iqtisodiy o'sishning barqaror manbalaridan biriga aylanib bormoqda. Xizmatlar sektorida bandlikning kengayishi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kichik biznes subyektlari ishtirokining ortib borishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida bandlik samaradorligini baholashga doir ko'rsatkichlarni kompleks tarzda ishlab chiqish hamda hududlar kesimida tahliliy yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurati mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur masala bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. G'arb, Osiyo va MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar xizmatlar sektorida bandlik iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri ekanini, bandlik samaradorligi esa mehnat bozori barqarorligini ta'minlovchi strategik omil sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Peter Drucker, Daniel Bell va Manuel Castells kabi postindustrial jamiyat nazariyotchilari xizmatlar iqtisodiyotining bandlikka ta'siri masalasini chuqur tahlil qilgan. Ularning ilmiy qarashlarida xizmatlar sektoridagi bandlik samaradorligi inson kapitali sifati, xizmatlar diversifikatsiyasi hamda bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. OECD va International Labour Organization tomonidan e'lon qilingan mehnat bozori sharhlarida esa xizmatlar sohasida bandlik samaradorligini aniqlovchi asosiy indikatorlar sifatida mehnat unumdorligi, aholi daromadlari, sektorning qo'shilgan qiymati, yangi ish o'rinlari yaratish sur'atlari hamda raqamlashtirilgan xizmatlar ulushi alohida qayd etiladi.

Yevropa Ittifoqi ekspertlarining tadqiqotlari xizmatlar sohasida bandlik samaradorligining o'sishini xizmatlar bozorining liberallashtirish, raqamli platformalar ko'lamining kengayishi hamda masofaviy mehnat shakllarining rivojlanishi bilan izohlaydi. Ushbu yondashuv xizmatlar sektorini iqtisodiy o'sishning eng innovatsion segmentlaridan biri sifatida talqin etadi.

MDH davlatlari tajribasida Vladimir Gimpelson, Rostislav Kapelyushnikov va Abel Aganbegyanlarning ilmiy ishlari xizmatlar sektorida bandlikning kengayishi mehnat bozorining modernizatsiyasi bilan bevosita bog'liq ekanini asoslaydi. Ular bandlik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida mehnat unumdorligi, xizmatlar tarmog'ining texnologik darajasi hamda norasmiy bandlik ulushini ko'rsatadilar. Ayniqsa, norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi xizmatlar sektorida mehnat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishni cheklovchi omil sifatida baholanadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham dolzarbligi bilan ajralib turadi. Q.X. Abdurahmonov, Z.Y. Xudoyberdiyev, G.Q. Abdurahmonova va M. Umurzoqov kabi iqtisodchilar mehnat bozori, bandlik tuzilmasi hamda xizmatlar sektorining iqtisodiy salohiyati masalalarini o'rganib, xizmatlar sohasida aholi bandligi samaradorligini baholashda ko'p mezonli yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida xizmatlar bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar, yoshlar va ayollar bandligining dinamikasi, hududlar bo'yicha bandlik ko'rsatkichlaridagi farqlanishlar hamda xizmatlar sektorida raqamlashtirish jarayonining roli alohida o'rin egallaydi.

Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda Mehnat bozorini rivojlantirish kontsepsiyasi (2020–2025) kabi davlat hujjatlarida xizmat ko'rsatish sohasida bandlik samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional va iqtisodiy mexanizmlar belgilangan. Bu holat mavzuning ilmiy-amaliy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi xizmat ko'rsatish sohasida aholi ish bilan bandligi samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish, ularni shakllantiruvchi iqtisodiy va institutsional omillarni baholash hamda kompleks tahliliy yondashuv asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodikasi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tahlil, shuningdek, mehnat bozori tadqiqotlarining zamonaviy yondashuvlariga tayangan holda shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davr iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biri postindustrial tuzilmaning kengayishi hamda xizmat ko'rsatish sektorining ustuvor tarmoqqa aylanishidir. Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va OECD tadqiqotlariga ko'ra, xizmatlar sektori global bandlikning o'rtacha 54–60 foizini tashkil etadi. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 70–85 foizgacha yetadi. Bu holat xizmat ko'rsatish sohasi mehnat bozorida asosiy “absorbsion kanal” sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektori bandlikning eng tez o'sayotgan segmentlaridan biri bo'lib, 2018–2023-yillar davomida uning bandlikdagi ulushi 31 foizdan 37 foizgacha oshgan. Mazkur jarayon quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- iqtisodiyotning servis yo'nalishiga bosqichma-bosqich o'tishi;
- kichik biznesning kengayishi va xizmatlar bozorida ko'plab mikro-korxonalar shakllanishi;
- raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida yangi xizmat turlarining paydo bo'lishi;
- turizm, transport, savdo, maishiy xizmatlar hamda IT-xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borishi.

Mehnat talabchanligi yuqori –
ish o'rinlari yaratish oson,
kapital talab nisbatan past.

Malaka darajasi boylab
farqlanadi – yuqori malakali
(IT, moliya, sog'liqni
saqlash), o'rta malakali
(savdo, transport), past
malakali (maishiy xizmatlar)
segmentlar mavjud.

Ayollar va yoshlar bandligi
ulushi yuqori – bu soha
gender va yosh bo'yicha
bandlikni kengaytiruvchi
tarmoq hisoblanadi.

Norasmiy bandlik yuqori –
ayniqsa savdo, maishiy
xizmatlar va transport
faoliyatida bu jarayon
sezilarli

1-rasm. Xizmatlar sektori bandlik jihatidan tavsiflanishi

Xizmatlar sohasida bandlikni tahlil qilish samaradorlik indikatorlarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Xizmatlar sohasida bandlik samaradorligini baholash ko'p mezonli yondashuvni talab qiladi. An'anaviy sanoat sektoridan farqli ravishda, xizmatlar mijoz bilan bevosita aloqada shakllanadi, ish natijasi moddiy ko'rinishga ega emas, uning asosiy qiymati xizmat sifati, tezligi va foydalilik darajasida namoyon bo'ladi.

Samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Mehnat unumdorligi:

$$MU = \frac{\text{Xizmatlar ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Bandlar soni}}$$

Bu ko'rsatkich xizmat sohasida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Yaratilgan qo'shimcha qiymat:

QQ = Xizmatlar yalpi qo'shilgan qiymati – Oraliq iste'mol

Xizmatlarning qiymat yaratish qobiliyatini aks ettiradi.

O'rtacha ish haqi va real daromadlar o'sishi:

Real daromad o'sishi mehnatni rag'batlantirish darajasini ko'rsatadi.

Bandlik darajasi:

Xizmatlar sektorida band bo'lgan aholining iqtisodiyotdagi umumiy bandlikdagi ulushi.

Yangi ish o'rinlari yaratilish ko'rsatkichi:

$$YIO = \frac{\text{Yangi yaratilgan ish o'rinlari}}{\text{Jami bandlar}} \times 100$$



Gender va yosh bo'yicha bandlik:

Xizmatlar sektori ayollar va yoshlar bandligi uchun eng qulay segmentdir.

Xizmat sifatining oshishi samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi:

- mijoz qoniqishi;
- xizmat tezligi;
- xizmatning ishonchliligi;
- shikoyatlar dinamikasi;
- xizmatlarni raqamlashtirish darajasi.

Bu elementlar xizmatlar sektorida samaradorlikning asosiy indikatorlariga aylanib bormoqda.

2020–2024 yillar xizmat ko'rsatish sektorining iqtisodiyotdagi ulushi ortgan, bandlik ko'rsatkichlari sezilarli ijobiy dinamikaga ega bo'lgan va raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan davr sifatida tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillarda iqtisodiyotda bandlik, xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari qiymati

Yil	Bandlar soni (ming kishi)	Xizmatlar hajmi (trln so'm)	Mehnat unumdorligi (mln so'm/band)
2020	170	195	1,15
2021	180	224	1,24
2022	195	257	1,32
2023	208	293	1,41
2024	220	325	1,47

Mazkur yillarda xizmatlar sohasida nafaqat ish o'rinlari kengaydi, balki mehnat samaradorligi, xizmatlar hajmi hamda xizmatlar sifati ko'rsatkichlarida ham izchil va tizimli o'sish kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektorida bandlar soni 2020-yildagi 170 ming nafardan 2024-yilda 220 ming nafarga yetib, bandlik hajmi 29,4 foizga oshgan. Ushbu kengayish mamlakatda xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, iqtisodiy faol aholi orasida xizmatlarga bo'lgan talabning kengayishi hamda kichik biznes subyektlari sonining sezilarli o'sishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, savdo, transport, turizm, logistika va IT-xizmatlar kabi tarmoqlar bandlikning asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'ldi.

Xizmatlar hajmining 2020-yildagi 195 trln so'mdan 2024-yilda 325 trln so'mga yetishi (66,6 foiz o'sish) sektorning jadal kengayayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon xizmatlar bozorining segmentatsiyasi, yangi xizmat turlarining shakllanishi, elektron savdo hamda raqamli xizmatlar tizimlarining chuqur integratsiyasi bilan izohlanadi. Xususan, 2022-yildan boshlab pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayoni xizmatlar bozorida talabning sezilarli darajada faollashuviga olib keldi.

Xizmatlar sektorida mehnat unumdorligi 2020-yildagi 1,15 mln so'm/band ko'rsatkichdan 2024-yilda 1,47 mln so'm/band darajaga ko'tarilib, 27,8 foizga oshdi. Bu holat mehnat samaradorligining izchil yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Mazkur o'sish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- raqamli xizmatlarning kengayishi, jumladan onlayn to'lovlar, masofaviy xizmatlar, elektron bronlash tizimlari va avtomatlashtirilgan jarayonlarning joriy etilishi;
- xodimlarning kasbiy malakasining oshishi, xususan 2022–2024-yillarda xizmatlar sektorida band bo'lgan xodimlarning raqamli savodxonlik va xizmat ko'rsatish madaniyati bo'yicha malaka oshirish dasturlarida ishtirokining kengayishi;
- yuqori qo'shilgan qiymatga ega xizmatlar ulushining ortishi, jumladan IT-xizmatlar, konsalting, logistika, servis-texnik va onlayn xizmatlar salmog'ining ko'payishi
- ish jarayonlarining optimallashtirilishi, ya'ni xizmat ko'rsatish korxonalarida CRM, ERP va HRM kabi boshqaruv tizimlarining joriy etilishi.

Bandlik sifatining yaxshilanishi ham kuzatildi. Xizmatlar sektorida yoshlar bandligi, ayollar bandligi hamda malakali ishchilar ulushi sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2024-yilda ayollar bandligining 43 foizga yetishi xizmatlar sektorining gender inklyuzivligi kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlarning xizmatlar sohasiga faol kirib kelishi sohaning demografik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Norasmiy bandlikning qisqarishi sektor samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Raqamli ro'yxatga olish tizimlari, soliq tartib-taomillarining soddalashtirilishi, patent tizimi hamda bandlik dasturlarining joriy etilishi natijasida savdo va transport segmentlarida norasmiy bandlik 7–9 foizga kamaydi.

Masofaviy bandlik ulushining 12 foizga yetishi xizmatlar iqtisodiyotida yangi bandlik modellari shakllanayotganini ko'rsatadi. Masofaviy mehnat imkoniyatlari, ayniqsa, IT-xizmatlar, dizayn, dasturlash, onlayn ta'lim, konsalting va media xizmatlari sohalarida keng rivojlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston xizmat ko'rsatish sektorining 2020–2024-yillardagi chuqur statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu soha mamlakat mehnat bozorida eng tez rivojlanayotgan, bandlik hajmi va sifati bo'yicha yetakchi tarmoqlardan biriga aylangan. Xizmatlar sektorida bandlikning 29–30 foiz atrofida o'sishi, xizmatlar hajmining qariyb 67 foizga kengayishi hamda mehnat unumdorligining 27–28 foizga oshgani xizmat ko'rsatish iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonlari bilan izchil uyg'unlashayotganini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari sektor samaradorligining oshishi bir qator tizimli omillar bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi. Birinchidan, raqamli transformatsiya xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirdi hamda avtomatlashtirilgan xizmat modellari ulushining kengayishiga zamin yaratdi. Onlayn to'lovlar, elektron navbat tizimlari, mobil ilovalar va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar mehnat samaradorligini 15–25 foiz atrofida oshirishda muhim rol o'ynadi.

Ikkinchidan, xodimlarning malaka va kompetensiyalarining oshishi xizmatlar sektorida samaradorlikning muhim drayverlaridan biriga aylandi. Xususan, 2024-yilda xodimlarning 43 foizining malaka oshirish dasturlarida ishtirok etgani raqamli hamda yumshoq ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon bandlik sifatining yaxshilanishi, xizmatlar sifati oshishi hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, xizmat turlarining diversifikatsiyalashuvi, jumladan transport-logistika, IT-xizmatlar, elektron tijorat, turizm va moliyaviy texnologiyalar sohalarining jadal rivojlanishi bandlik samaradorligining sezilarli darajada oshishiga imkon yaratdi. Ushbu tarmoqlar yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion bandlik shakllarini rivojlantirish hamda masofaviy va platformaviy mehnat ulushini kengaytirishda muhim rol o'ynadi.

To'rtinchidan, davlat tomonidan amalga oshirilgan institutsional islohotlar xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy o'sishning barqaror segmentiga aylantirishga xizmat qildi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarining soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari, shuningdek, "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" kabi dasturlar nafaqat bandlik hajmining oshishiga, balki bandlik sifatining yaxshilanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasida bandlik samaradorligi ko'rsatkichlarining izchil o'sib borishi ushbu sektorning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirib, raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Bu holat kelgusida xizmatlar sektorida bandlikni yanada samarali boshqarish, innovatsion mehnat shakllarini keng joriy etish, inson kapitali sifatini oshirish hamda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraxmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi*. — Toshkent: Iqtisod–moliya, 2021. — 456 b.
2. Xodjaqulov H.R., Mirzaev A. M. *Xizmatlar sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. — Toshkent: Fan, 2022. — 312 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. *Xizmatlar sektori rivojlanishi: statistik to'plam (2020–2024)*. — Toshkent, 2024.
4. Valarie Zeithaml, Mary Jo Bitner, Dwayne Gremler. *Services Marketing: Integrating Customer Focus Across the Firm*. — New York: McGraw-Hill, 2020. — 560 p.
5. OECD. *Employment Outlook: Changing Service Sector Employment Structures*. — Paris: OECD Publishing, 2023.
6. World Bank. *Digital Economy and Employment Transformation in Emerging Markets*. — Washington, DC, 2022.
7. Michael E. Porter. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 2019.
8. Don Tapscott. *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. — New York: McGraw-Hill, 2021.
9. Klaus Schwab. *The Fourth Industrial Revolution*. — Geneva: World Economic Forum, 2020.
10. Qo'chqorova N., Rahimov G'. Xizmatlar sohasida ish bilan bandlikning tashkiliy-iqtisodiy tamoyillari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. — 2023. — № 4. — B. 45–55.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100